XALQ DEPUTATLARI XOVOS TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 20 - noyabr VI-66-199-9-129-K/23 Xovos tuman hokimligi

Xovos tuman mahalliy budjetining 2023 yil 2-chorak yakuni bilan shakllangan qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi budjet kodeksining 126-moddasiga hamda Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi Qonunining 6,24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi**:

1. Xovos tuman hokimining tuman mahalliy budjetining daromadlarining 2023-yil 2-chorak yakunlari bo‘yicha aniqlangan daromadlarni rejadan oshirib bajarilgan qismi hisobiga shakllangan qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag ajratish yuzasidan kiritilgan taklifi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xovos tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashining qarorlari asosida yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

3. Tuman mahalliy budejtining qo‘shimcha manbalari etib quyidagilar belgilansin:- tuman budjetining yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag‘lari;- tuman budjeti daromadlarining birinchi-uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha daromadlarni rejadan oshirib bajarilishidan;- davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tuman budjetiga tushgan mablag‘lardan;- "E-IJRO AUKSION elektron" savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tuman budjetiga tushgan mablag‘lari.

4. Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashi mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:- 2023 yil 2-charakda tuman mahalliy budjetida shakllanadigan qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish 1-ilovaga muvofiq amalga oshirilsin

va budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda budjet intizomiga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

5. Budjetdan mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlariga tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflash vazifasi hamda sarflangan mablag‘lar to‘g‘risidagi hisobotlarni Xalq deputatlar Xovos tuman Kengashga taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘lar tuman hokimligi axborot xizmati (S.Maxmudov)ga tumanning rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Nurmatov zimmasiga yuklatilsin.

8. Qaror rasmiy nashrda e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi B.Xudoyberdiyevga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Egamnazarovich R. G.**

Xalq deputatlari Xovos tuman
Kengashining
2023-yil 20-noyabrdagi
VI-66-199-9-129-K/23-son qaroriga
1-ilova

Xovos tuman mahalliy byudjetining 2023-yil II chorak daromodlarni rejadan oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratilishi to‘g‘risida

ming so‘mda

T/r	Ko‘rsatkich	Mablag‘ ajratishga taklif
1	*Tuman hokimligiga elektr generatori sotib olish xarajatlari uchun*	**62 000,0**

Xovos tumani bo‘yicha jami	**62 000,0**
jumladan:	**62 000,0**